

LINGVOKULTUROLOGIK ATOV BIRLIKLARINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Bo'riyeva Charos

Qarshi davlat universiteti lingvistika yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Maqolada lingvokulturologik nazariyaning rivojlanishi uchun xizmat qilgan omillar, asosiy tushunchalar, ularning madaniy hayotida tutgan o'rniga katta e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, Langar ota, Nasaf, yodgorlik;

Qadim o'tmishga nazar tashlasak, tarixiy obidalar, asori-atiqalar, ajdodlarimizning ilmiy merosi xalqimizning bitmas xazina manbai hisoblanadi. Ma'lumki, bu o'zbek xalqining lingvomadaniy merosi bo'lib xizmat qiladi. Bu milliy madaniy qadriyatlar xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Mustaqilligimizning sharofati bilan madaniy tarixiy merosimizga e'tibor ortdi. Mustaqillik davrida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarimiz qayta ta'mirlandi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan madaniy yodgorliklarimiz ya'na qaytadan chiroy ochdi.

Shahrisabzda Amir Temur bobomiz haykallari qad ko'tardi. Toshkentda Alisher Navoiy bobomiz haykallari, Urganchda Jaloliddin Manguberdi bobomiz haykallari, Termiz shahrida Alpomish bobomiz haykallari o'rnatildi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq butun insoniyat bezavol yashaydi". Shuni aytish joizki, lingvomadaniy merosimiz asrlar osha insonlar uchun katta xazina vazifasini o'tab keladi.

Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanida joylashgan **Langar ota ziyoratgohi** haqida. "Langar ota" atamasi asosan tasavvuf ta'limoti ishqiy tariqat shayxi Abulhasanga tegishli nisbat hisoblanadi..

Langar ota qadamjosisida noyob ishlov berilgan hamda xalq hunarmandchilik mehnati namunasi hisoblanadi. Mahalliy xalq urf-odatlarini, milliy qadriyatlari va madaniy boyliklari unda mujassam etilgan. Yurtimizda bunday yodgorlikni noyob desak ham bo'ladi. Bu ziyoratgoh tomlari baland, poydevorlarga katta toshlar qo'yilgan, undagi ustun va yig'ochlar masjidni juda fayzli qilib ko'rsatadi. Masjid 3 qismdan tashkil topgan. Ular kichik va katta masjid va ayvondan iborat.

Davrlar oshsa ham uning mahobatli ko'rinishi insonlarning nazarida bo'lib kelmoqda. Qo'ng'iroq hamda qutchi xalqlarining o'tovlarida, gilamlarida, bog'ish bilan tizmalarida naqshlarni ko'ramiz. Bu bezaklar Ko'k turk podsholarining ramzlari hisoblangan ekan.

1. **Aziziddin Nasafiy** to'liq ismi sharifi - Aziziddin ibn Muhammad an — Nasafiy. Qashqadaryolik qomusiy olim, tabib, tasavvuf falsafasining vakili bo'lgan.

Nasafiy avval Nasaf, keyin Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Tasavvuf va falsafani chuqur egallagan. Bundan tashqari tib ilmidan ham juda yaxshi xabardor bo'lgan. U kishi yuz yil umr ko'rgan degan xabarlar bor. Shoir fors tilida ijod qilgan. Komil inson bo'lgan desak yanglishmaymiz. Uning “ Al-inson al –komil ” (“Komil inson”) asari juda mashhur hisoblanadi.

Alisher Navoiy “Holoti Sayid Hasan Ardasher” da Sayid Hasanning kitoblari qatorida Aziziddin Nasafiyning risolalarini ham yozib o'tganlar.

2. **Nasaf (tarixiy viloyat va shahar)**- Qarshi shahrida, Qashqadaryoning quyi oqimi atroflarida o'rnashgan o'rta asr shahri va viloyatning atalishi.

3. **Nasaf (futbol klubi)** – Qarshi shahrining milliy terma jamoasidir.

4. **“Nasaf” nashriyoti**-Qashqadaryo viloyati matbuot boshqarmasi huzurida joylashgan.

O'zbek xalqi milliy an'analari, urf-odatlar, tili, madaniyati va dini bilan jahon hamjamiyati oldida alohida ajralib turadi. Bizning ezgu qadriyatlarimiz ming yillik tarixdan sado beradi, bu biz kelajak avlod vakillarini ruhlantiradi.

Milliy madaniyatimiz o'zga millat vakillari madaniyatidan keskin farq qiladi. Bunda nutq madaniyati, yurish-turish, kattalarga hurmat, urf-odatlarimiz xalqimizning yuksak madaniyatli va ma'naviyatli xalq ekanligidan dalolat beradi.

Shuni aytish lozimki, madaniy hayotimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etamiz va unda qadimgi ajdodlarimizning madaniy merosini chuqur ildizlariga murojaat etamiz. Bu har bir inson hayotining ajralmas bo'lagi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosida o'rganish va targ'ig qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi.

2. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari Islom Karimov.-T: Ma'naviyat.2008.

3. Lingvokulturologiya.Darvishov Ibrohim. Ma'ruza matn. Namangan-2021.

4. zionet.uz, Google.uz.